



BADIIY ADABIYOT MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR EMOTSIONAL INTELEKTINI RIVOJLANTIRISH OMILI SIFATIDA

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18173804>

Raxmatullayeva Zamira Olimjonovna

*Namangan davlat pedagogika institute Kreativ pedagogika va psixologiya kafedrası
katta o'qituvchisi*

E-mail: rahmatullayevazamira17@gmail.com

ANNOTATSIYA. *Mazkur maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarda emotsional intellektni rivojlantirishda badiiy adabiyotning pedagogik-psixologik ahamiyati ilmiy jihatdan yoritilib, jamiyatda yuz berayotgan ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar, ota-onalar va bolalar o'rtasidagi muloqotning qisqarishi hamda raqamli texnologiyalarning ortib borayotgan ta'siri bolalarda emotsional sohaning yetarlicha shakllanmasligiga olib kelayotganligi asoslab berilgan. Shuningdek, badiiy adabiyot orqali bolalarda empatiya, hamdardlik, axloqiy baholash, o'zi va boshqalarning his-tuyg'ularini anglash hamda boshqarish ko'nikmalarini shakllantirish imkoniyatlari tahlil qilingan. Maqola maktabgacha ta'lim tashkilotlari pedagoglari va psixologlari uchun amaliy ahamiyatga ega.*

KALIT SO'ZLAR: *maktabgacha yosh, emotsional intellekt, badiiy adabiyot, emotsiyalar, empatiya, ijtimoiy-emotsional rivojlanish, axloqiy tarbiya, tarbiyachi faoliyati, psixologik rivojlanish.*

Рахматуллаева Замира Олимжоновна

Наманганский государственный педагогический институт, старший преподаватель кафедры Креативная педагогика и психология

E-mail: rahmatullayevazamira17@gmail.com

АННОТАЦИЯ. *В данной статье с научной точки зрения раскрывается педагогико-психологическая значимость художественной литературы в развитии эмоционального интеллекта у детей дошкольного возраста. Обосновывается, что социально-экономические изменения, происходящие в обществе, сокращение общения между родителями и детьми, а также возрастающее влияние цифровых технологий приводят к недостаточному формированию эмоциональной сферы у детей. Кроме того, анализируются возможности формирования у детей посредством художественной литературы таких качеств и навыков, как эмпатия, сопереживание, нравственная оценка, осознание и управление собственными и чужими эмоциями. Статья имеет практическую значимость для педагогов и*



психологов дошкольных образовательных организаций. Ключевые слова: дошкольный возраст, эмоциональный интеллект, художественная литература, эмоции, эмпатия, социально-эмоциональное развитие, нравственное воспитание, деятельность воспитателя, психологическое развитие.

Rahmatullayeva Zamira Olimjonovna

Namangan State Pedagogical Institute, Senior Lecturer at the Department of Creative Pedagogy and Psychology

E-mail: rahmatullayevazamira17@gmail.com

ANNOTATION. *This article scientifically examines the pedagogical and psychological significance of fiction in the development of emotional intelligence in preschool children. It substantiates that the socio-economic changes taking place in society, the reduction of communication between parents and children, and the increasing influence of digital technologies lead to insufficient development of the emotional sphere in children. In addition, the article analyzes the possibilities of developing empathy, compassion, moral evaluation, as well as the skills of understanding and regulating one's own and others' emotions through fiction. The article has practical significance for educators and psychologists working in preschool educational institutions.*

KEYWORDS: *preschool age, emotional intelligence, fiction, emotions, empathy, social-emotional development, moral education, educator activity, psychological development.*

KIRISH

Har bir ota-ona o'z farzandini kelajakda yuksak axloqiy fazilatlariga ega bo'lgan, o'zi va jamiyat oldidagi mas'uliyatni his qiladigan, mamlakat rivojiga hissa qo'sha oladigan, hayotda o'z o'rniga ega bo'lgan shaxs bo'lib voyaga yetishini hohlaydi. Biroq so'nggi paytda jamiyat taraqqiyoti jarayonida yuz berayotgan ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar natijasida ota-onalarning mehnat faoliyatiga ajratadigan vaqti ortib, farzandlar bilan bevosita muloqot qilish imkoniyatlari qisqarib bormoqda. Natijada bolalar o'z vaqtining katta qismini televizor, kompyuter va boshqa raqamli vositalar qarshisida

o'tkazmoqdalar. Bu esa ularda insoniy his-tuyg'ular, ijtimoiy-emotsional ko'nikmalarning shakllanishini sekinlashtirib, bolalarda asabiylik, jahldorlik, emotsional tushkunlik, inijlik, yolg'izlik hissi, impulsivlik hamda itoatsizlik kabi salbiy psixologik xususiyatlarning rivojlanishiga olib kelmoqda. Chunki, tadqiqotchilarning ta'kidlashicha, bolalar bilan yetarlicha muloqot o'rnatilmaganligi sababli ularda emotsional sezgirlik, empatiya, o'z his-tuyg'ularini anglash va boshqarish kabi muhim psixologik ko'nikmalar yetarli darajada shakllanmaydi.[1]

Asosiy qism. Maktabgacha yosh davrini tadqiq etgan olimlar ushbu yosh



bosqichi bolaning shakllanishi uchun senzitiv davr deb hisoblashadi. Shuning uchun ham mazkur holat maktabgacha ta'lim tashkilotlari oldiga bolalarda emotsional intellektni rivojlantirishga qaratilgan pedagogik-psixologik ishlarni tizimli ravishda tashkil etish vazifasini qo'ymoqda. "Emotsional intellekt" tushunchasi "intellekt ko'effitsienti"ga qarshi qo'yilgan bo'lib, u vaziyatni to'g'ri baholay olish, muloqotga stressiz, mos ravishda kirisha olish qobiliyati sifatida talqin etiladi.

Shunday ekan maktabgacha yoshdagi bolalarda emotsional intellektning rivojlantirilishi ularning jamiyatga moslashishi, boshqalar bilan yaxshi munosabatda bo'lishi, ijtimoiy ko'nikmalarni shakllanishida katta rol o'ynaydi. Chunki, bola qachonki boshqalarning va o'zining hissiyotlarini tushuna olsagina, u atrofdagilar bilan tez til topisha oladi, jamoaga oson moslashadi. Agar bola quvonch, g'azab, qo'rquv, hafalik kabi his-tuyg'ularni anglamasa, ularni tushunib va ifodalashni bilmasa, u atrofdagi vaziyatlarni to'g'ri baholashda qiynaladi. Aytaylik bola do'stini xafa bo'lganini tushunmasa, uni yupatishni bilmaydi yoki bola o'zining g'azabini nazorat qila olmasa, atrofdagilar bilan tez-tez janjallashadi. Tadqiqotchilar Yu.B.Gippenreyter va S.I.Semenaka fikricha, emotsiyalarni tushunadigan bolalar o'z tengdoshlariga nisbatan boshqalarga mehribon, ijtimoiy jihatdan muvaffaqiyatli bo'ladilar va o'z tengdoshlari tomonidan ijobiy qabul qilinadilar. Fransuz psixologi A.Vallon

fikriga ko'ra, emotsiyalar bolaning ijtimoiy muhit bilan dastlabki aloqalarini ta'minlaydi va tafakkur hamda irodaviy sifatlarning rivojlanishi uchun asos bo'lib xizmat qiladi. [5].

Maktabgacha yoshdagi bolalarda emotsional intellektni rivojlantirish uchun ularda atrofdagi voqea-hodisalarga axloqiy nuqtai nazardan baho berishni, odamlarning xatti-harakatlarini to'g'ri tushunishni, ijtimoiy va emotsional vaziyatlarga mos munosabat bildirishni shakllantirish zarur. Bu jarayonda bolaning ijtimoiy muhiti va u duch keladigan hayotiy vaziyatlar albatta hisobga olinishi shart. Mazkur jarayonda bolalar adabiyoti emotsional intellektni shakllantirishning eng samarali vositalaridan biridir. Badiiy adabiyot orqali bolalar o'zlarini, o'z his-tuyg'ularini, shuningdek, atrofdagi odamlarning (xotirjam, yoqimli, qo'rqinchli va boshqalar) his-tuyg'ulari va xarakterlarini chuqurroq tushunishni boshlaydilar.

A.V.Zaporojes va S.L.Rubinshteynlarning ta'kidlashicha, badiiy obrazlar orqali bola nafaqat voqeani idrok etadi, balki qahramonlarning ichki kechinmalarini his qiladi, ularga hamdard bo'lishni o'rganadi. Ya'ni badiiy asarlar bolalarda qahramonlarga nisbatan hamdardlik, achinish, qoralash, g'azab, hayrat, quvonch kabi turli emotsiyalarni uyg'otadi. L.P.Strelkova ta'kidlaganidek, aynan badiiy adabiyot bolalar oldida insoniy his-tuyg'ular olamini ochib beradi, ularni qahramon shaxsiga, uning



ichki dunyosiga qiziqishga undaydi. Badiiy asar qahramonlariga hamdard bo'lishni o'rgangan bolalar, asta-sekin atrofidagi yaqinlari va boshqa insonlarning muammolarini ham sezishni boshlaydilar [12].

Ertaklar, hikoyalar va she'rlar bolalarda empatiya, axloqiy baholash, adolat va haqiqatga intilish kabi sifatlarni shakllantiradi.

Badiiy adabiyot bolalarda his-tuyg'ular va munosabatlarni rivojlantiradi, ijobiy va salbiy emotsiyalarni shakllantiradi, haqiqat va adolatga intilish ruhini tarbiyalaydi. Badiiy asarni idrok etish jarayonida bolalar o'z emotsional tajribasini boyitadi. L.M.Gurovich fikricha badiiy asarlarni tinglash va o'qish jarayonida maktabgacha yoshdagi bolalarda turli xil bevosita kitobxonlik kechinmalari tajribasi shakllanadi. Bular quvonchdan tortib qayg'u va qo'rquvgacha bo'lgan rang-barang emotsiyalarni, shuningdek, turli janrlar, uslublar, mualliflar va tarixiy davrlarga mansub asarlarni idrok etish bilan bog'liq his-tuyg'ularni o'z ichiga oladi. Bola asta-sekin o'z qiziqishlari va moyilliklarini shakllantiradi, yoqtirgan qahramonlariga mehr qo'yadi, o'quvchi sifatida tanlov qilishni o'rganadi [4].

Shuningdek, badiiy adabiyot maktabgacha yoshdagi bolalarda shaxsga oid ko'plab xususiyatlarni shakllanishiga yordam beradi. Jumladan, bolaning o'z jinsiy mansubligini anglashiga, oilaviy va qarindoshlik munosabatlarini

tushunishiga, kattalar va tengdoshlari bilan munosabatlarni to'g'ri yo'lga qo'yishiga, shuningdek, "Men xohlayman" motividan ko'ra "Men buni qilishim kerak" tuyg'usining ustuvor bo'lishiga xizmat qiladi.

Yana shuni ham aytish kerakki bolani faqat ertak yoki hikoyani o'qib his-tuyg'ularni tushunishi yetarli emas. Tarbiyachilar bolalarga emotsiyalarni hayotga tatbiq qilishni, ya'ni boshqa insonning emotsional holatini tushunish, yordam bera olish, himoya qilish, hamdardlik bildirish, hayotiy vaziyatlarda yoqtirgan qahramoniga o'xshab harakat qilish, ertaklardagi axloqiy mazmundagi vaziyatlarga o'xshash real holatlarni topa bilishni ham o'rgatishlari zarur. Bu haqida mashhur psixolog va pedagoglar — A.V.Zaporojes, S.L.Rubinshteyn, B.M.Teplov, I.N.Andreeva, D.V.Lyusin, A.D.Kosheleva va boshqa olimlarning ishlarida bir necha bor ta'kidlangan.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, maktabgacha yoshdagi bolalarda emotsional intellektni rivojlantirish zamonaviy ta'lim tizimining dolzarb vazifalaridan biridir. Ushbu jarayonda badiiy adabiyot bolalarning emotsional sezgirligi, empatiyasi va axloqiy qarashlarini shakllantirishda samarali pedagogik vosita bo'lib xizmat qiladi. Badiiy asarlar orqali boyitilgan emotsional tajriba bolalarning ijtimoiy moslashuvi, ruhiy barqarorligi va kelgusidagi shaxsiy muvaffaqiyatlari uchun mustahkam poydevor yaratadi.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Акулова О.А. Театрализованные игры // Дошкольное воспитание – 2005. – № 4
2. Botirali ogli, X. A. (2025). Current Problems Of Inclusive Education: Challenges And Perspectives. *European International Journal of Pedagogics*, 5(06), 26-29.
3. Vaxobova, M. (2024). O'smirlarning ota-onalari bilan munosabatlaridagi muammolar. *Журнал Педагогики и психологии в современном образовании*, 4, 53-57.
4. Гурович Л.М., Береговая Л.Б., Логинова В.И. Ребенок и книга. – СПб.: Детство-Пресс, 2000
5. Muxina V. S. Yosh psixologiyasi: Rivojlanish fenomenologiyasi, bolalik, o'smirlik: Universitetlar uchun darslik. Moskva: Akademiya, 1999.
6. Munira, V., & Sodiqjonovna, M. X. (2024). Bolalarda yuvinel revmatoid artrit kasalligining kelib chiqishi hamda uning oldini olish choralari. *Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi*, 15(1), 33-35. 2.
7. Olimjonovna, R. Z. (2025). SHARQ MUTAFAKKIRLARINING BOLA AXLOQIY KAMOLOTINI SHAKLLANTIRISHDA OILANING ROLI HAQIDA QARASHLARI. *ZAMONAVIY TA'LIM TIZIMINI RIVOJLANTIRISH VA UNGA QARATILGAN KREATIV G'OYALAR, TAKLIFLAR VA YECHIMLAR*, 8(82), 133-136.
8. Olimjonovna, R. Z. (2024). EMOTSIONAL INTELLEKT BOLAJAK MUTAXASSISLARNING MUHIM XUSUSIYATI SIFATIDA. *INNOVATION IN THE MODERN EDUCATION SYSTEM*, 5(41), 452-458.
9. Рафикова, Р. А. (2024). СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ STEAM-ТЕХНОЛОГИЙ КАК ТРЕБОВАНИЕ ВРЕМЕНИ: Рафикова Рената Анатольевна. *Лучшие интеллектуальные исследования*, 22(3), 407-413.
10. Рената Анатольевна Рафикова Анализ преимуществ и ограничений методологии STEMобразования // *Science and Education*. 2025. №6. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/analiz-preimuschestv-i-ogranicheniy-metodologii-stemobrazovaniya> (дата обращения: 29.12.2025).
11. Стрелкова Л.П. Влияние художественной литературы на эмоции ребенка // *Эмоциональное развитие дошкольника*. – М.: 1985.
12. Xasanboyev, A. B. O. G. L. (2025). STEAM ta'lim texnologiyalari asosida talabalarni ilmiy faoliyatga yo 'naltirishning innovatsion texnologiyalari. *Science and Education*, 6(5), 296-301.